DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-93 Pages: 796-804

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



MASDAR AND ITS TYPES IN ARABIC

Shuhrat Mirgiyazovich Mirziyatov
PhD, Associate Professor
Uzbekistan, Tashkent

Zilola Adhamova
Department of Arabic Studies
Tashkent State University of Oriental Studies
Email: Adhamovazilola42@gmail.com
Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: masdar, verb, pattern, Basra, Kufa, samāī, qiyāsī, masdar mimī, single-instance masdar, form masdar, şināī masdar.

Received: 06.03.25
Accepted: 08.03.25
Published: 10.03.25

Abstract: This article explores the concept of masdar in the Arabic language, scholars' opinions on it, the types of masdar, the number of roots it can have, and its classification based on form. It also explains how different masdars can be distinguished from each other and properly assigned to the correct pattern.

ARAB TILIDA MASDAR VA UNING TURLARI

Shuhrat Mirgiyazovich Mirziyatov
PhD, dotsent
O'zbekiston, Toshkent

Zilola Adhamova
Arabshunoslik oliy maktabi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Eamail: Adhamovazilola42@gmail.com
O'zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar masdar, fe'l, vazn, Basra, Kufa, samoiy, qiyosiy, masdaru mimiy, bir martalik masdar, shakl masdari, sinoiy masdar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida masdar tushunchasi ,olimlarning fikri, masdar va uning turlari, nechta o'zakka ega ekanligi hamda shakl jihatidan qanday turlarga bo'linishi yoritib beriladi.Turli masdarlarni qanday qilib bir-biridan farqlash va to'g'ri

vaznga solish ochib beriladi.

МАСДАР В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ И ЕГО ВИДЫ

Шухрат Миргиязович Мирзиятов
PhD, доцент
Узбекистан, Ташкент

ЗилолаАдхамова
Высшая школа арабистики
Ташкентский государственный университет востоковедения
Email: Adhamovazilola42@gmail.com
Узбекистан, Ташкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: масдар, глагол, модель, Басра, Куфа, сама‘ий, киясий, масдар мимий, масдар однократности, формальный масдар, масдар синаий.

Аннотация: В данной статье рассматривается понятие масдара в арабском языке, мнения учёных, виды масдара, количество его корней, а также его классификация с точки зрения формы. Также раскрывается, как различать разные масдары и правильно соотносить их с соответствующими весами.

Kirish. Arab tili dunyoning eng qadimiy va keng tarqalgan tillaridan biri hisoblanadi.Ushbu tilning so’z yaslishi va morfologik xususiyatlarini tushunishda masdar muhim o’rin tutadi.Masdar arab tilida fe’lning nom shakli bo’lib,u harakat yoki holatni nom sifatida ifodalash uchun ishlatiladi.

Asosiy qism.Masdar fe’lning nom shakli bo’lib,o’zbek tilida u harakat nomiga to’g’ri keladi. Misol keltiradigan bo’lsak,”o’qish”,”yozish”,”yigiruv”,”to’quv”kabi shakllarga mos keladi (Ibrohimov,1997,p.69).Masdar- bu fe’lning asli bo’lib,unga nahvshunos olimlar o’z qarshlarini asarlarida keltirib o’tganlar.Ibn Molikning ta’biri bilan aytganda “Masdar – bu fe’lning semantikasiga ega bo’lib,vaqtning ma’nosini anglatmaydigan ismdir”. Nuriddin Abdurohman al-Jomiyning ta’biri bilan esa,masdar (المصدر) – bu harakat nomi (اسم الحدث) bo’lib,mustaqil mavjud bo’lmagan,balki boshqa narsa orqali namoyon bo’ladigan ma’noni ifodalaydi.Bu ma’no harakatdan kelib chiqadigan yoki kelib chiqmaydigan bo’lishi mumkin.Harakatdan kelib chiqadigan masdarlar hodisani anglatadi,masalan: الضرب (urish), المشي (yurish).Harakatdan kelib chiqmaydigan masdarlar esa hodisa bilan bog’liq bo’lmagan, balki holatni ifodalovchi masdarlardir,masalan:الطول (uzunlik),القصر (kalta bo’lish).

Masdar fe’ldan hosil bo’lgach,u fe’l bilan bog’lanib,quyidagi grammatik maqsadlarda ishlatilishi mumkin.Fe’lni ta’kidlab,turi,sonini ifodalab keladi ,masalan:جلست جلوسا,جِلسة,جَلسَة

(men o'tirdim – to'liq o'tirish holatini bildiradi,o'tirish uslubi,bir marta o'tirilganligi) (Nur al-Din Abd al-Rahman al-Jami,2015, p. 450.).

Masdar mavzusi doirasida biroz bahsli o'rinlar mavjudki,bu munozara arab tilshunosligi tarixida ikkita katta maktab Basra va Kufa tilshunoslik maktablari asl ishtiqoq fe'lmi yoki masdar ekanligi borasida bahslashadilar.Sarf olimlariga ko'ra,fe'l va masdar o'rtasida "ilmiy ishtiqoq" mavjud.Basraliklar ushbu bog'liqlikni masdarning o'z asl shaklini tashlab,yangi bir shaklga ega bo'lishi bilan izohlashgan.Kufiylar esa,fe'l o'z tuzilishini o'zgartirib,yangi shaklga ega bo'lish orqali bu bog'liqlikni tushuntirishgan.Natijada hosil bo'lgan ushbu sarfiy o'zgarish "ilmiy ishtiqoq" deb ataladi.Chunki ishtiqoq deganda,ikki so'z o'rtasida ma'no va harf jihatidan bog'liqlik bo'lishi,ulardan biri asl,ikkinchisi esa hosila sifatida qabul qilinishi tushuniladi (Sadallah al-Burdai,1969,p.288).

Sarfiy ishtiqoqga kelsak,bu bir so'zning boshqa bir so'zdan shakliy jihatdan hosil bo'lishi demakdir.Ya'ni,muzoriy fe'lning moziydan hosil bo'lishi sarfiy ishtiqoq sanaladi.Chunki moziy fe'l aniq ravishda muzoriydan oldin paydo bo'lgan.Biroq masdar bilan moziy fe'li o'rtasida bunday aniq munosabat mavjud emas.Shu bois,masdar bilan fe'l o'rtasidagi ishtiqoq "ilmiy ishtiqoq",boshqa holatlardagi ishtiqoq esa "sarfiy ishtiqoq" deyiladi.

Kufaliklar esa,o'zlarining ishtiqoq haqidagi fikrlarini quyidagicha dalillashga harakat qilganlar:

Fe'l masdarning omili bo'lganligi sababli,fe'l asl,masdar esa hosila hisoblanadi.Ularning fikriga ko'ra,asl bo'lgan narsa hosilaga ta'sir qilishi mumkin,lekin aksincha – hosilaning aslga ta'sir qilishi mumkin emas.Masalan,ضربتُ ضربا (men urdim) gapida fe'l mazkur masdarga amal qilib,uni o'ziga maf'ul mutlaq(المفعول المطلق) sifatida bog'lagan.Bizningcha,ularning ilgari surgan bu dalili unchalik ishonchli emas.Chunki biror so'zning asl yoki hosila ekanligi faqat uning amil (عامل) yoki ma'mul bo'lishi bilan isbotlab bo'lmaydi.Zero,ismi foil (مـأمول) ning hosila so'z ekanligiga hech qanday shubha yo'q.Shunga qaramay,ismu foil oddiy ot kabi omil sifatida ishlaydi(Al-Anbar,1995,p.163-164 ;Asmar Raji,1997,p.142).

Basraliklarga ko'ra,masdar fe'lning asosi hisoblanadi.Ularning bu boradagi dalillari quyidagilardan iborat:

1.Masdarning asl bolishi deganda,undan hosil bo'lgan fe'lning nafaqat uning ma'nosini,balki qo'shimcha boshqa ma'nolarini ham o'zida mujassam etishi tushiniladi.Ya'ni,fe'l masdarning hosilasidir,lekin hsu bilan birga fe'l, zamon va nisbat ma'nolarini ham o'zida mujassam etadi.

2.Fe'ldagi shkliy o'zgarishlar uning hosila,masdarning esa asl ekanligiga dalildir.Chunki qo'shimchalar va ortiqcha shakllar odatda hsoila so'zlarda uchraydi.Masalan,agar bir uzukning moddasi kumush deb qabul qilinsa,unda uzuk hosila bo'lib,asl bo'lgan kumushga nisbatan

ko'proq xususiyatga ega bo'lgan bo'ladi (Al-Anbar,1995,p.161-163;Sadallah al-Burdai;1969,p287,).

3.Masdar va fe'l o'rtasidagi bog'liqlik ishtiqoq bog'liqlikdir.Bu bog'liqlikning mohiyati ikki so'zning harf soni va tartibi bir xil ekanligini ko'rib,ularning ma'nolarini ham o'xshash ekanligini bilish va shunga asoslanib fe'l so'zini otga boglash orqali tushuntiriladi.Natijada birinchi so'z hosila,ikkinchi so'z asl ekanligi namoyon bo'ladi (Al-Anbar,1995,p.161-163;Sadallah al-Burdai,1969,p288;Asmar Raji,1997,pp,96-97).

Har ikkala maktabning fikralrini bayon qilgandan so'ng,Basra maktabining fikrlarini qo'llab-quvvatlovchi ayrim dalillarni ko'rishimiz mumkin:

- Masdar jomid (o'zgarmas) otlar turkumiga kiradi,fe'l esa o'ziga xos bo'lgan fe'l so'z turkumiga kiradi.
- Otning mavjudligi fe'ldan oldin bo'lgan,shu sababli masdarning mavjudligi ham fe'ldan avval bo'lishi kerak.
- Tobe tabiatga ega bo'lgan metafora ishlatilganda,o'xshatish va metafora birinchi navbatda fe'lning masdaridan boshlanadi va u orqali fe'lga o'tadi.Shundan kelib chiqib, bu holat fe'lning hosila,masdarning esa asl ekanligiga dalolat qiladi (Inam Fawwal,1996,pp.96-97).

Masdar turlari.Arab tilida masdarlar hosil bo'lish usuliga qarab ikki turga bo'linadi: simoiy (السماعي) va qiyosiy(القياسي).

Simoiy masdar- fasohatiga ishonchli shaxslarning so'zlaridan olingan va o'zgarmmas bo'lgan masdar turidir.Bunga Qur'on,Payg'ambar (s.a.v) hadislari,shuningdek,u zotning yuborilishidan oldingi davrdanboshlab,til buzilishlarisodir bo'lguniga qadar arablar tomonidan yaratilgan she'riy va nasriy adabiy so'zlar kiradi (Al-Suyuti ,2005,pp.118-119).Simoiy masdar turi uch asosiy toifaga bo'linadi:

1.Qur'on qiroatlari.Qur'onning barcha qiroatlari arab tili uchun asosiy manba sifatida foydalanish mumkin (Al-Suyuti,2005,pp.102-103;Hindawi,1989,p.92).

2.Hadislarning til manbai sifatida qabul qilinishi.Hadislar bilan istishhod qilish turli qarashlar mavjud bo'lsa-da,ayrim hadislarning til manbai sifatida qo'llanishi kuzatilgan .

3.Johiliya davrida yaratilgan asarlar.Johiliya davridan hijriy ikkinchi asrning yarmigacha bo'lgan davrda arablar yaratgan barcha she'r va nasr asarlari simoiy manbasi sifatida qabul qilingan (Hindawi,1989,p.167).

Simoiy tushunchasida muayyan vaqt chegarasi mavjud.Buning sababi shundaki,hijriy ikkinchi asrning yarmigacha arab tili tabiiy ravishda barqaror ravishda rivoyat qilingan.Keyinchalik,turli tillarga mansub kishilar islomni qabul qiladilar va shu sababli til aralashuvi sodir bo'ldi.Bu aralashuv natijasida to'g'ri vba noto'g'ri til shakllarining bir-biriga

qo'shilib ketishining oldini olish uchun aniq mezonlar ishlab chiqildi va mavjud til me'yorlari himoya qilindi.

Qiyosiy masdar.Lug'aviy jihatdan qiyos-bir narsani unga o'xshash boshqa bir narsaning o'lchovi bilan aniqlashdir.Tilshunoslik istilohida esa,qiyos –hosila hukmini asl hukmi kabi tasavvur qilishdir (Hindawi,1989,p.241).Mahdi al-Mahzumiyning fikriga ko'ra,qiyos noma'lum narsani ma'lum narsaga,eshitilmaganni eshitilganga va ilgari idrok etilmagan tushunchani ongda mavjud bo'lgan bilimlarga bog'lashdir(Hindawi,1989,pp.241-242).

Sarf olimlari qiyos tushunchasini turli iboralar bilan izohlasalar-da,mohiyatan hamma talqinlar bir xil mazmunni ifodalaydi.

Masdar vaznini aniqlash uchun ikki asosiy mezon mavjud.

Qiyosiy masdarlar to'rt,besh,olti o'zakli fe'llardan hosil bo'ladi.Masalan:

- To'rt o'zakli fe'llarning masdarlari,مقابلة,إكراما,دحرجة
- Besh o'zakli fe'llarning masdarlari,اجتماعا,تكسرا,تباعدا
- Olti o'zakli fe'llarning masdarlari,استمتاعا,اشتقاقا,احضيرارا kabi.

Ko'pchilik qiyosiy masdarlar shu qoida asosida shakllansa-da,juda kam hollarda simoiy masdar shaklida keladiganlari ham uchraydi.

Simoiy masdarlar odatda uch o'zakli fe'llardan hosil bo'ladi. Bu turdagi masdarlarning aniq bir vazni bo'lmaydi,lekin ba'zilarining vazni borligi kuzatiladi.Ularni asosan eshitish orqali yoki lug'atlardan qarab bilish mumkin.

Uch o'zakli masdarlarning bir qismi qiyosiy masdar hisoblanadi.Ular faqat tor doirada-vazniga yoki ma'nosiga asoslanib aniqlanishi mumkin.Bular quyidagilardir:

فَعْلا uch o'zakli va o'timli fe'llarning masdari bo'lib,bunga أَخَذَ- أَخْذًا,نَصَرَ-نَصْرًا kabi fe'llar misol bo'la oladi. Ushbu vaznda masdar bo'lishi uchun fe'l 1-bobda bo'lishi va o'timli bo'lishi kerak.

فَعَلا vazni esa o'timsiz fe'llarga xos bo'lib,uch o'zakli fe'llarning 4-bobdagi shaklida uchraydi.Masalan: غَضِبَ-غَضَبًا,فَرَحَ-فَرَحًا.

فُعُولٌ vazni esa uch o'zakli fe'llarning 2-bobdagi o'timsiz fe'llari uchunqiyosiy vazn hisoblanadi.Masalan:جُلُوسًا– جَلَسَ,سَجَدَ-سُجُودًا,رَكَعَ-رُكُوعًا. Ushbu misollarga e'tibor qaratilsa,barchasi inson jismi bilan bog'liq harakatlarni bildirganini ko'rishimiz mumkin.

فُعَالٌ vazni odatda kasallik nomlarida qo'llanadi. Masalan:سَعُلَ-سُعَالا,زَكُمَ-زُكَامًا,صَدَعَ-صُدَاعًا.

فَعِيلٌ vaznida asosan tovush ifodalovchi masdarlardir. Masalan:- نَهَقَ - نَهِيقًا,زَئِرَ - زَئِيرًا,صَهَلَ - صَهِيلًا .

فَعَلَانٌ vaznidagi masdarlar harakat bilan bog'liq so'zlarni anglatadi.Maslan:طَافَ – طَوَفَانًا,جَالَ – جَوَلَانًا,غَلَى –غَلَيَنًا.

فِعَــالٌ vazni esa,kasb-kor va san’atni bildiruvchi masdarlardir.Maslan:-تَجَـرَ - تِجَـارَة,حَكَى حِكَايَة,زَرَعَ – زِرَاعَة.

فُعُولَــة,فَعَالَة vaznlari,uch o’zakli fe’llarning 5-bobi masdarlaridir.– صَــعُبَ – صُــعُوبَة,فَصُــحَ فَصَاحَة,ظَرُفَ - ظَرَافَة . Ushbu masdarlar ba’zi mavhum xususiyatlarning ma’nosini ifodalaydi (Abd al-Rajihi,2004,pp.66-67;Asmar Raji,1997,pp.373-374).

Uch o’zakli fe’llarning qiyosiy masdarlari har biri o’ziga xos shartlar asosida hosil bo’lishi mumkin.Biroq,qolgan uch o’zakli fe’llarning masdarlari esa,asosan samoiy (eshitish) asosida shakllanadi.

Bundan avval ham to’rt,besh va olti o’zakli fe’llarning masdarlari vaznlarini qiyosiy asosga bog’liq ekanligini ta’kidlagan edik.Biroq,ular orasida samoiyga asoslangan masdarlar juda kam uchrashini ham qayd etgan edik.

Bu fe’llarning masdarlari ko’pincha fe’lning moziy (o’tgan zamon) shaklini eslatadi.Biroq,masdarda majburiy ravishda yuzaga keladigan harflarning tushihsi yoki almashish natijasida ba’zan mazkur mazsdar fe’lning asl vaznidan uzoqlashgandek ko’rinishi mumkin.Bunday o’zgarishlar qoidalarga muvofiq ravishda amalga oshadigan almashinuv tizimlari yordamida asl vaznning qanday ekanligini anglash imkonini beradi.

Mazkur masdarlar qanday shaklda va qayerda kelishidan qat’i nazar,ularning qonuniyatlarini bilgan kishi ularnio boshqa so’z shakllaridan osongina ajrata oladi.

Shakliga ko’ra masdarlarning turlari. Masdaru mimiy (المصــدر الميمي).Masdaru mimiy-qo’shimcha “ م” (mim) harfi bilan boshlanadigan va harakatni zamon va makondan mustaqil holda ifodalovchi masdardir.U uch o’zakli fe’llardan "مَفْعَلٌ" shaklida yasaladi,masalan: – رَصَدَ مَرْصَدًا,ذَهَبَ – مَذْهَبًا.Masdaru mimiy qiyosiy masdar turiga kiradi.

Vaznlari. Uch o’zakli fe’llardan “مَفْعَلٌ” vaznidan yasaladi,masalan:مَعْلَمٌ,مَأْخُذٌ,مَرْمَى,مَوْقَى kabi.

Agar fe’l “و” harfi bilan boshlanib,hozirgi zamon shaklida bu harfi tushirilgan bo’lsa,u holda masdar “ مَفْعِلٌ " shaklida bo’ladi:مَوْعِدٌ,مَوْضِعٌ,مَوْرِدٌ.

Uch o’zakdan ortiq fe’llarning masdari moziy (hozirgi zamon) shaklidan hosil bo’ladi.Bunda,muzoriy fe’lning boshidagi harf o’rniga “ م“ harfoi qo’yilib,oxiridan oldingi harf “َ “ (fatha) ga o’zgartiriladi.Masalan:مُنْطَقَلٌ – انطلق ,مُسْتَغْفَرٌ – استغفر.

Ba’zan uch o’zakli fe’llardan masdaru mimiy “مَفْعِــلٌ “ vaznida ham keladi: مَرْجِعٌ,مَيْسِرٌ,مَشِيبٌ,مَعْجِزٌ.Shu bilan birga “ مَفْعَلٌ“ shaklidagisi ham uchrashi mumkinكالمَعْجَزُ و المَهْلَكُ:.

Bir martalik masdar (مصدر المرة).Bir martalik masdar harakatning faqat bir marta sodir bo’lishini bildiradi.Agar uch o’zakli fe’lning masdari bo’lsa , u “فَعْلَةٌ “ vaznida bo’lib,bir martalik harakatni bildiradi.Misollar:رَحْمَةٌ,خَشْيَةٌ,دَكَّاةٌ,إِتْيَانَةٌ,لِقَلءةٌ.

Agar fe’l uch o’zaklik bo’lmasa, u holda quyidagi “إِفْعَالَــةٌ “ vazindan hosil qilinadi,masalan:أَعْطَى – إِعْطَاءَةً.

Abdulqodir Jurjoniy o’zining “al - Miftah”asarida ,undan oldin Sibaveyhi “al- Kitob” asarida bu haqida aniq ma’lumot berib o’tishgan edi:”Agar fe’lning faqat bir marta sodir bo’lishini ifodalamoqchi bo’lsak,biz uni har doim “ فَعْلَةٌ“ vaznida keltiramiz.Chunki fe’lning asl shakli “ فَعَلَ“ bo’lib,arablar masdarni shu shaklda ishlatishgan.Agar ular fe’lning faqat bir marta ekanligini ifodalamoqchi bo’lsalar,uni “فَعْلَةٌ “ shaklida aytishgan.Xuddi “تَمْرٌ “ (xurmo mevalari) so’zidan “تَمْرَةٌ “ (bitta xurmo) hosil qilganidek,”قَعَدْتُ قَعْدَةً “ (men bir marta o’tirdim),”أَتَيْتُ أَتْيَـةً “ (men bir marta keldim) kabi”.Ya’ni, arablar “فَعْلَـةٌ “ vaznini fe’lning faqat bir marta bajarilganligini ifodalash uchun ishlatishgan.Ushbu shaklning asosiy belgisi – birinchi harf fatha undan keyingi harf sukun bo’lishidir.

Bundan tashqari,Sibaveyhi arab tilida kam uchraydigan “لِقَـاءَةٌ“ , “ إِتْيَانَـةٌ“ shakllari mavjudligini ham qayd etgan.Ammo u bu shakllarning kam qo’llanishini va asosiy qoidaga to’g’ri kelmasligini ta’kidlagan.Barcha holatlarda “ فَعْلَةٌ“ shakli eng keng tarqalgan va qo’llash qoidalari barqaror.

Ibn Molik ham bir martalik masdar va shakl masdarini izohlab shunday degan:” فَعْلَةٌ bir martalik harakat uchundir xuddi جَلْسَةٌ (bir marta o’tirish) dek.Agar harakat qanday sodir bo’lgani haqida bo’lsa, u holda فِعْلَةٌ vaznida keladi.Xuddi جِلْسَةٌ kabi.

Bu yerda "فَعْلَةٌ لمرّة كجَلسَة " Ibn Molik bir martalik harakat anglatgan masdarlarning vazni “فَعْلَةٌ “ bo’lib birinchi harf fatha bilan boshlanishini,xuddiki: ضَرَبْتُهُ ضَرْبَةً kabi.Shunga asoslanib u “ ة“ (tamarbuta) asosida yasalgan masdarlarni bir martalik harakatga dalolat qilishini aytgan,xuddi:رحمة واحدة, نعمة واحدة kabi.

Shakl masdari (مصـدر الهيئة). Agar uch o’zakli fe’lning masdari “ فِعْلَـةٌ“ vaznida bo’lib,avvalgi harfi “ ِ“(kasra) bilan boshlansa,u shakl yoki uslub ma’nosini bildirgan masdar hisoblanadi.Masalan:جَلَسَ – جِلْسَةً,مَشَى – مِشْيَةً,أَكَلَ – إِكْلَةً.

Bu tur masdar “ مصدر الهيئة“ yoki “اسم الهيئة “ deb ataladi.

Sibaveyhi bu masdar haqida shunday deydi, : “ فِعْلَةٌ“ vaznida kelgan so’zlar,harakatning qanday bajarilganligini bildirsa ular shakl masdari hisoblanadi.Masalan : حَسَنُ الطِّعْمَةِ,قَتَلْتُهُ قِتْلَـةُ سَوء,بِئْسَةُ الميتة

Bu yerda so’zlari qanday qilib,qanday usulda sodir bo’lgan harakatni ifodalayotganini ko’rish mumkin.Sibaveyhi ushbu masdarni “ نوع“ (tur,usul) yoki “ هيئة“ (shakl,uslub) ma’nosida kealdigan masdarlar deb izohlaydi.

Sinoiy masdar (المصدر الصناعي).Sinoiy masdar – otga nisbat yoyi (ياء النسب) va ortidan tamarbuta (تـاء التـأنيث) qo’shilib hosil bo’ladigan ot bo’lib,u qandaydir sifat yoki holatni bildiradi.Sinoiy masdarlar ham mustaqil otlardan ham yasama otlardan hosil bo’lishi mumkin.Mustaqil otlardan:إنسانية,كمية.

Yasama otlardan:فاعلية,أسبقية,مصدرية.

Sinoiy masdar quyidagi so’z turlaridan hosil qilinadi:

a. Ismi foil (اسم الفاعل): عالم - عالمية

b. Ismi maf’ul (اسم المفعول): معذور - معذورية

c. Af’alu tafdil (أفعل التفضيل): أرجح - أرجحية

d. Asliy masdar (المصدر الأصلي): إسناد - إسنادية

e. Masdaru mimiy (المصدر الميمي): مصدر - مصدرية

f. Ism – shaxs (اسم العلم): عثمان - عثمانية

g. Ismu jamid (اسم الجامد): إنسان – إنسانية.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo’lsak,arab tilida masdar tushunchasi keng tushuncha bo’lib,u arab tilining turli yo’nalishlarida o’zining muhim o’rniga ega.Kufa va Basra olimlarining masdarga bergan ta’riflarlari farqli bo’lib,bu esa masdar hali ham bahsli mavzular doirasiga kirishini ,bundan tashqari,masdarning turli aspektlarga asoslanib,bir necha turlarga bo’linishi,ularning vazni xilma-xilligi ham,ba’zan esa, hatto, ba’zilarining qoidaga bo’ysunmasligi aytib o’tildi.Va yana,muhim jihatlaridan biri ularni to’g’ri vaznga solib kerakli joyda munosib qo’llanilishi ham eslatib o’tildi.Olimlar hoh u masdar tushunchasi bo’lsin,hoh uning turlari haqida bo’lsin ular o’rtasida o’zaro farqli yondashuvlar borligi ham e’tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Nematullo Ibrohimov, Muhammad Yusupov. (1997) Grammar of the Arabic language.Arab tili grammatikasi. – Tashkent: Uzbekistan Milliy Entiklopediyasi. – 453 p. (in Uzbek)

2. Nur al-Din Abd al-Rahman al-Jami. (2015) The Radiant Benefits. Favaidu al-Diyaiyyah. Ta'lif: Nuru al-Din Abdu al-Rohman al-Jamiy.- Istanbul: Shifa yayinevi ve Matbajilik.-607 p (in Arabic)

3. Sadallah al-Burdai. (1969). The Gardenes of Subtleties.Hadaiqu al-Daqoiqi.- Istanbul: Ismet Maatbasi.- 336 p (in Arabic)

4. Al-Suyuti Abd al-rahman ibn Abi Bakr ibn Muhammad. (2005). The Manifiestetition in Linguistics Sciences and Their Types (ed. Muhammad Abdurrahim). Al-Muzhir fi-l-ulum al-Lugha wa Anwaiha.-Beirut: Dar al-Fikr.-960 p (in Arabic)

5. Hasan Hindawi.(1989). Methods of Morphologists in the Third and Fourth Hijri Centuries. Manahiju al-Sarfiyyin fi-l-Asr al-salisi va-r-Rabi-l-Hicri.-Damascus: Dar al-Kalam.-483 p (in Arabic)

6. Abd al-Rajihi. (2004). Morphological Application. Al-Tatbiqu al-Sarfi. - Beirut: Dar al-Nahdati al-Arabi. – 194 p (in Arabic)

7. Abd al-rahman ibn Muhammad,Abu al-Barakat. (1995). Secrets of Arabic (ed. Fahir Salih). Asroru al-Arobiyya.-Beirut: Dar al-Jil.- 34p (in Arabic)

8. Asmar Raji. (1997). The Detailed lexicon in Morphology. Mujamu al-Mufassal fi-l Ilmi al-sarfi.- Beirut: Daru al-Kutubi al-Ilmiyyi.- 688 p (in Arabic)

9. Inam Fawwal. (1996). The Detailed Lexicon in Rhetorical Sciences. Al-mujamu al-Mufassal fi-l Ulumi al-balaghah.- Beirut: Daru Kutubi al-Ilmiyya.- 637 p (in Arabic)

10. http://moodle.univ-dbkm.dz